O’ZBEKISTON MILLIY HUNARMANDCHILIGINING ZAMONAVIY AMALIY SAN’ATDAGI O’RNI

O’rozboqova Dilnura Barot qizi

Abdulla Qodiriy nomidagi JDPI, Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo’nalishi 101- guruh talabasi, Jizzax, O’zbekiston

e-mail:drustamova079@gmail.com

Annotatsiya:*Maqolada zamonaviy o’zbek xalq amaliy san’atini an’ana va innovatsiya kesimida tadqiq qilgan olimlar haqida so’z boradi. Bugungi kunda badiiy hunarmandchilikning shakllanishiga ilmiy jihatdan hissa qo’shgan barcha olimlar, san’atshunoslar, tadqiqotchilarning ijodiy tahliliy manbalari Mustaqillik yillarida olib borilayotgan izlanishlarga bevosita yo’lboshchilik qilgan. Quyida esa ushbu omillarning o’ziga xosligi o’rganilib, umumiylik ilmiy tadqiq etilgan.*

Kalit so’zlari: *O’zbek xalq amaliy san’ati, an’ana, innovatsiya, kulolchilik, kandakorlik, yog’och o’ymakorligi, kashtachilik, gilamdo’zlik, ganchkorlik.*

***

Annotation:*The article is about scientists who have studied modern Uzbek folk art in terms of tradition and innovation. Today, the creative analytical sources of all scientists, art critics, and researchers who have made a scientific contribution to the formation of artistic craftsmanship have directly guided the research conducted during the years of Independence. The following is a study of the specificity of these factors and their generality.*

Key words: *Uzbek folk arts, traditions, innovation, ceramics, carving, wood carving, embroidery, carpet weaving, pottery.*

Hunarmandchilik - milliy – an’anaviy mayda tovar ishlab chiqarish, oddiy mehnat qurollari yordamida yakka tatrtibda va qo’l mehnatiga asoslangan sanoat turi; shunday mahsulotlar tayyorlaydigan kasblarning umumiy nomi.

XX asr oxiri XXI asr boshlarida o’zbek amaliy bezak san’ati unikal hodisa sifatida rivojlanib, mahalliy maktablar individual va qaytarilmas xususiyatlari bilan ajralib turuvchi o’ziga xos yo’nalish sifatida badiiy ijodning keng ommalashgan turlaridan biriga aylandi. O’zbekiston badiiy hunarmandchiligida

an’ana va innovatsiya jarayonlarini ijtimoiy va madaniy makonning muhim elementi sifatida tizimli tahlil etishga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O’zbekiston amliy san’ati kelib chiqish xususiyatiga ko’ra ko’lami keng, chegara bilmas san’at turlaridan biri hisoblanadi. Mustaqillik davri zamonaviy O’zbekiston amaliy san’atining asosiy badiiy uslublari, markazlari va maktablari aynan XIX asr oxiri XX asr boshlarida o’zbek xonliklari hududlarida tashkil topadi. O’zbekistonning 1991-2011 yilgi amaliy hunarmandchilikdagi asliyat va yangiliklar borasidagi fikrlar A.Xakimovning ilmiy maqolasida keltirilgan. O’zbekiston an’anaviy badiiy hunarmandchilikning sohalari qayta tiklanishi va bu boradagi ilmiy izlanishlar Xorazm, Samarqand, Farg’ona, Urgut, Nurota, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari hunarmandchilik maktab va markazlari kesimida tahlil etilgan, yangi nomlarga urg’u berilgan, ammo 2011 yildan keyingi ustalarning ijodiy ishlari taxlili keltirilmagan.

Kulolchilikda asosiy xom ashyo-tuproq hisoblanadi. Kulolchilikda hamda mayda haykalchalarni yasashda turli hil loylardan foydalaniladi, Masalan, Kosagar loy-patloy yoki tovoq loyi deb ham yuritiladi. Bunda yassi yuzali idishlar hamda haykalchalar yasashda ishlatiladi. Mayda haykalchalarni yasashda shamol, ilvata,bo’yoqlar, angob, charx, mo’yqalam, mola, katta mola, kichkina mola, sim, naqshin qolip,taroq, targ’il qalam va boshqalar ishlatiladi. Kulolchilikda loyni ustalar har xil texnalogiyada tayyorlaydi. Maxsus tuproqdan loy qilinib uni tepib, mushtlab pishitiladi loyni yulib olib qattiq yuza ustida urib pishitiladi, shundan keyin loy ichida to’planib qolgan havo yo’qotiladi.keyingi jarayon maxsus qoliblarga joylashtirilib maxsus pechlarda moslashgan haroratda pishiriladi va bo’yoqlar bilan ishlash holatiga tayyor qilinadi. Maxsus bo’yoqlar va mo’y qalamlarda ishlov berilib haykalchalar tayyor holatga keladi.

Talaba O’razboqova Dilnuraning ijodidan namunalari

Badiiy hunarmandchilik ya’ni kulolchilik bozor iqtisodi va xaqiqiy san’at o’rtasida turli hildagi ijodiy va ijobiy raqobat mavjud. Xalq amaliy san’atidagi asl an’anaviy san’atni to’la- to’kisligicha saqlab qolish va o’z ijodiy yo’lini aynan shu kesimda davom ettirish bugungi kundagi usta - hunarmandlar faoliyatida keskin kamayib bormoqda. Sanoqli usta hunarmandlargina asl an’anaviy yo’nalishida ijod qilishmoqda.Yurtimizda kundan kunga ichki va tashqi turizm rivojlanib borayotgani sababli dekarativ mayda haykalchalarga qiziqish kuchayib

bormoqda. Bu borada bozor iqtisodining ham bevosita o’ziga xos ta’sirini gapirmasdan ilojimiz yo’q. Ichki va tashqi turizmning rivojlanishi zamonaviy amaliy san’atda bozor iqtisodiyotining takomillashuviga ma’lum darajada sabab bo’ladi. Badiiy hunarmandlar xaridorlarning talab va takliflariga binoan mahsulot turini, shaklini, kompazitsiyasini, xajmini (nomutanosib bo’lsada) o’zgartirib yarata boshlashadi va bu holat bugungi kungacha o’z ahamiyatini yo’qotmay kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. *Raxmatullayeva D. (2021). Tarixiy dramaturgiyada tanqidiy realizmning shakillanishi. Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomchilik va dizayn instituti Axborotnomasi ilmiy- amaliy jurnali.*

2.*S.SH.Aliyeva. 1970-1990- yillarda O’zbekiston xalq kulolchiligi(an’analarining saqlanishi va rivojlanishi muammolari). San’at fanlari nomzodi. – Toshkent, 1996.*